

Sarhisob: atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni kamaytirish maqsadida olib borilgan chora-tadbirlar natijasi

// 14.01.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-atrof-muhitni-muhofaza-qilish-va-chiqindilarni-kama>



Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, sanoat korxonalarining atrof muhitga ta'sirini kamaytirish orqali ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarida kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning samarali va zamonaviy usullari joriy etilmoqda.

Jamiyat kimyo sanoatini zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilgan yagona texnika siyosatni yuritish bilan bir qatorda ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta'minlash, chiqindisiz texnologiyalarni va atrof muhitni saqlash dasturlarini joriy etishni maqsad qilgan.

Tarmoqda 2024-yil davomida umumiy qiymati **34,3 mlrd so'm qiymatdagi** chora-tadbirlar amalga oshirildi. Chang-gaz tozalash uskunalarini ta'mirlash va ularning samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari hisobiga atmosferaga **15,6 ming tonna** tashlanmani qisqartirishga erishildi. Lokal oqova suv tozalash inshootlarini ta'mirlash hisobiga **3,3 mln kub metr** oqova suvlarini chiqarishning oldi olinib, **787,6 mln kub metr** artezian suvi iqtisod qilindi. Ixtisoslashgan tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish va korxonalarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda **31,7 ming tonna** chiqindining utilizatsiya qilinishiga erishildi.

Bu kabi ishlar joriy yilda ham faol davom ettiriladi. 2025-yilda kimyo korxonalari bo'yicha umumiy qiymati **35,7 mlrd so'mga teng 91 ta** chora-tadbirdan iborat tarmoq dasturi tasdiqlanib, ijrosini ta'minlashga kirishildi. Natijada atmosferaga **17,8 ming tonna** tashlanmaning, **224,8 ming kub metr** oqova suvi chiqishining oldi olinadi. Shu bilan birga **441,2 ming kub metr** artezian suvi iqtisod qilinadi va **32,6 ming tonna** chiqindi utilizatsiya qilinadi.

"O'zkimyosanoat" AJ hamda uning tarmoq korxonalari "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ham 2024-yilda qator tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, Jamiyat tarmoq korxonalari tomonidan 2024 yil bahor va kuz mavsumlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekiladigan manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari (milliy dastur) qabul qilinib, unga ko'ra jami **1,2 mln. dona** ko'chat o'tkazish reja qilindi. O'tgan yil bahor (mart-aprel) mavsumida tarmoq korxonalarda **167,5 gektar** yerga jami **854,5 ming dona** manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari ekildi.

2024 yilning kuz mavsumida "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari tomonidan **65,6 gektar** yerga **491,4 ming dona** manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari o'tkazildi. Shu jumladan korxonalar atrofida "yashil belbog'"lar yaratildi.

Umuman, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari tomonidan 2024 yilga rejalashtirilgan **1,2 mln. dona** manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlaridan jami **1,34 mln. dona** ekilib, reja **111,67 foizga** bajarildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati